

**O'ZBEKISTON RESPEBLIKASI HUDUDIDA ELEKTRON
PULLARNING BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDITINI TASHKIL
ETISH**

Tursunboyev Shoxjaxon Zaynitdinovich

Bank-moliya akademiyasi

Bank hisobi, audit va nazorat mutaxassisligi magistri

Annotatsiya. Ushbu maqolada muallif tomonidan mamlakatimizda elektron tijoratning nazariy jihatlari, elektron pullarning hisobi va auditini tashkil qilish masalalari o'rganilgan. Qolaversa, elektron pullarning buxgalteriya hisobini tashkil qilishning o'ziga xos jihatlari bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: buxgalteriya hisobi, audit, elektron pullar, elektron tijorat.

**ORGANIZATION OF ACCOUNTING AND AUDIT OF ELECTRONIC
MONEY IN THE TERRITORY OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN**

Tursunbayev Shokhjakhon Zaynitdinovich

Academy of banking and finance

Master of banking accounting, auditing and control

Abstract. In this article, the author studied the theoretical aspects of electronic commerce in our country, the issues of accounting and auditing of electronic money. In addition, proposals and recommendations on specific aspects of the organization of electronic money accounting have been developed.

Key words: accounting, audit, electronic money, electronic commerce.

Bugun raqamli texnologiyalar iqtisodiyotimizning barcha tarmoqlariga jadal kirib bormoqda. Elektron tijoratning rivojlanishi, turli to‘lov xizmatlarini etkazib beruvchilar o‘rtasida raqobat muhitining shakllanishi va kuchayishi, chakana to‘lovlar bo‘yicha tranzaktsion xarajatlar qisqartirilishini, shuningdek, to‘lovlarni amalga oshirishda moliyaviy institutlarning vositachiligini talab etmaydigan innovatsion va jozibador to‘lov vositalarining joriy qilinishini taqozo etdi.

O‘zbekiston Respublikasining “To‘lovlar va to‘lov tizimlari to‘g‘risida”gi Qonunining qabul qilinishi elektron pullar muomalasini, jumladan, elektron pullarni chiqarish, foydalanish va ularni qoplash bo‘yicha amalga oshiriladigan faoliyatning huquqiy asosini yaratib berdi.

Ushbu qonun asosida **“O‘zbekiston Respublikasi hududida elektron pullarni chiqarilishi va muomalada bo‘lishi qoidalari”** ishlab chiqilib, Adliya vazirligida 2020 yil 29 aprelda 3231-son bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazildi.

Mazkur hujjat jahon tajribasiga tayangan holda, elektron pullar tizimi faoliyatini tashkil etish, elektron pullar muomalasi, elektron pullar tizimida risklarni boshqarish hamda tizimda xavfsizlikni ta‘minlash maqsadida ishlab chiqildi. Unda elektron pullar tizimiga oid asosiy tushunchalar, shu jumladan, “ayirboshlash operatsiyasi”, “bir va ko‘p emitentli elektron pullar tizimi”, “oldindan to‘langan karta”, “elektron pullar tizimining agenti”, “elektron hamyon” va sohaga oid boshqa terminlarga batafsil tushuntirishlar berilgan.

Qoidaga ko‘ra, emitent, operator, elektron pullar tizimining agenti, elektron pullar egasi, shuningdek, emitent bilan shartnoma tuzgan banklar, to‘lov tashkilotlari, yakka tartibdagi tadbirkorlar va (yoki) yuridik shaxslar elektron pullar tizimining sub’ektlari hisoblanadi (1-rasm). Bunda elektron pullar tizimining ishlashini ta‘minlaydigan bank va (yoki) tegishli litsenziyaga ega bo‘lgan to‘lov tashkiloti – elektron pullar tizimining operatoridir. Emitent yoki emitent bo‘lmagan boshqa bank operator bilan tuzilgan shartnoma asosida

elektron pullar tizimining hisob-kitob banki sifatida faoliyat yuritishi mumkin. Ta'kidlash joizki, emitent o'z faoliyatini boshlashi uchun, eng avvalo, elektron pullarni chiqarish va realizatsiya qilishi to'g'risida Markaziy bankka belgilangan shakldagi xabarnoma va unga ilova sifatida operator bilan tuzilgan shartnoma hamda elektron pullar tizimi sub'ektlari bilan tuziladigan shartnomalar namunalari yuborishi zarur.

Hujjatga muvofiq, elektron pullarning chiqarilishi emitent tomonidan jismoniy shaxs yoki elektron pullar tizimining agentidan qabul qilingan pul mablag'lari doirasida elektron pullar tizimi qoidalari hamda elektron pullarni chiqarish, ulardan foydalanish va ularni qoplash to'g'risidagi shartnomaga asosan amalga oshiriladi.

Emitent tomonidan elektron pullarning chiqarilishi uchun jismoniy shaxs naqd pul yoki naqd pulsiz shaklda pul mablag'larini taqdim etishi zarur. Ushbu pul mablag'lari emitent tomonidan hisob-kitob bankida ochilgan maxsus hisobvaraqqa kirim qilinishi ta'minlanadi.

Elektron pullarni jismoniy shaxsga va elektron pullar tizimining agentiga realizatsiya qilish elektron pullar tizimi tomonidan har bir elektron pullar egasi uchun shakllantiriladigan elektron hamyonga emitentdan sotib olingan elektron pullarni kirim qilish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Emitent yoki operator bilan tuzilgan shartnoma asosida elektron pullar tizimining agenti elektron hamyonga ega bo'lgan jismoniy shaxslarga ushbu pullarni realizatsiya qilish yoki ularni qoplash maqsadida elektron pullarning nominal qiymati bo'yicha uning egasi bo'lgan jismoniy shaxsdan sotib olishi mumkin.

Ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasi hududida emitent tomonidan chiqariladigan elektron pullar faqat milliy valyutada nominallashtirilgan bo'lishi shart.

Emitent va elektron pullar tizimining agenti tomonidan elektron pullarni chiqarishda uning egasiga elektron pullarni realizatsiya qilinganligi va elektron pullarning egasi elektron pullarni sotib olganligini tasdiqlovchi kvitantsiya yoki boshqa tasdiqlovchi hujjat qog'oz shaklda yoki elektron shaklda taqdim etiladi. Mazkur kvitantsiyada ko'rsatilishi majburiy bo'lgan rekvizitlar, xususan,

- agent, emitent va operatorning nomi;
- operatsiyaning amalga oshirilgan sanasi hamda vaqti;
- amalga oshirilgan operatsiyaning tartib raqami;
- realizatsiya qilingan elektron pullar summasi;
- elektron pullar egasiga tegishli elektron hamyonning identifikatsiya kodi;
- undiriladigan vositachilik haqi miqdori ko'rsatilishi shart.

Qoidaga ko'ra, elektron pullarning egasi bo'lgan jismoniy shaxs elektron pullardan to'lovlarni va elektron pullar tizimining qoidalarida belgilangan hamda O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga zid bo'lmagan shartlar asosida egasidan elektron pullarni mazkur tizimning boshqa ishtirokchisiga o'tkazish orqali boshqa operatsiyalarni amalga oshirish maqsadida foydalanadi.

Tijorat banklarining muhim operatsiyalaridan biri iqtisodiyotda faoliyat yuritayotgan xo'jalik sub'ektlarining o'zaro to'lovlarini o'tkazib berish hisoblanadi. Bunday tur operatsiyalar bankning hozirgi kunda asosiy daromad keltiruvchi operatsiyasi bo'lib hisoblanadi. Iqtisodiyotda amalga oshiriladigan pul aylanishining 80-90 foizi naqd pulsiz hisob-kitob shakllari asosida olib boriladi. Naqd pulsiz hisob-kitoblar korxonalar va tashkilotlarning tovarlar sotish, xizmat ko'rsatish va tovarsiz operatsiyalar bo'yicha majburiyatlarini pul mablag'larining hisobvaraquadan ikkinchi hisobvaraqaga o'tkazish orqali amalga oshirilishi bo'lib hisoblanadi. Naqd pulsiz pul aylanishi vlp iqtisodiy mahsulotni ishlab chiqarish jarayonida sodir bo'ladigan munosabatlarini o'zida aks ettirishga ko'ra ikki qismga bo'linadi: Tovar operatsiyalari bo'yicha pul aylanishi. Moliyaviy majburiyatlar bo'yicha pul aylanishi. Birinchi guruxga

tovarlarni sotish, xizmatlar ko'rsatish va ishlar bajarishdagi hisob-kitoblarni aks ettiruvchi pul aylanishi kiradi. Ikkinchi guruhga esa byudjetga to'lovlar, ya'ni foydadan to'lanadigan solik, qo'shilgan qiymat solig'i va boshqa majburiy to'lovlar hamda byudjetdan tashqari fondlar, bank ssudalarini qaytarilishi, kredit uchun foizlarning to'lanishi, sug'urta kompaniyalari bilan hisob-kitoblar kiradi.

Naqd pulsiz pul aylanishi pulli munosabatlar ishtirokchilarining joylashuviga qarab bir shahar ichidagi va shaharlararo pul aylanishiga bo'linadi. Bir shahar ichidagi pul aylanishi bir hisob markaziga qarashli banklar o'rtasidagi hisob-kitoblar majmuini bildiradi. Shaharlararo pul aylanishi esa turli hisob markazlariga qarashli banklar o'rtasida amalga oshiriladigan hisobkitoblar yig'indisidir. Lekin respublikamizda bank tizimining riyaojlanishi, «elektron to'lovlar» tizimiga o'tish natijasida hisob-kitoblarda ishtirok etuvchi sub'ektlarning joylashuviga qarab ikkiga bo'lish maqsadga muvofiq bo'lmay koldi. chunki hisob-kitoblarda qatnashuvchi sub'ektlar qaysi xududda joylashganidan qat'iy nazar, to'lovlar bir necha soatda, xattoki bir necha daqiqada o'tkaziladi. Naqd pulsiz hisob-kitoblarni tashkil etishda bir qator tamoyillarga asoslaniladi. Bu tamoyillar quyidagilar: har bir xo'jalik sub'ekti o'z pul mablag'larini banklarda ochilgan depozit hisobvaraqlarda saqlashlari lozim. Korxonalar va tashkilotlar o'zaro hisob-kitoblarni bevosita bankdagi hisobvaraqlar orqali amalga oshirishlari shart. qaysi bankda hisobvaraqlar ochishni mijozlarning o'zlari tanlaydilar. hisob-kitoblar to'lovchining roziligi bilan uning topshirig'iga asosan depozit hisobvaraqdagi mablag'i evaziga amalga oshiriladi. Korxonalar bank kreditidan foydalanish huquqiga ega bo'lsa, to'lovlar bank krediti hisobidan amalga oshiriliish mumkin. Tovar yetkazib beruvchi korxonalar hisobvarag'ida pul mablag'lari mazkur mablag'larning mol sotib oluvchi korxonalar hisobvarag'idan o'chirilgandan so'ng o'tkazib beriladi. To'lovni kafolatlash maqsadida etkazib berilishi lozim bo'lgan tovar yoki ko'rsatilishi

lozim bo'lgan xizmat qiymatining 15 % oldindai to'langandan so'nggina tovarlar jo'natiladi yoki xizmatlar ko'rsatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Абдуллаева Ш.З. Банк иши. Т.: “Молия” 2005
2. Рашидов О.Ю. ва бошқалар. Пул, кредит ва банклар. Т.: ТДИУ, 2007.
3. Наврўзова К. Банкларда бухгалтерия ҳисоби. Т. 2007